**S H A R T N O M A №56841**

"17" noyabr 2022 yil — Farg'ona sh.

**Ahmad Farg'oniy nomidagi Farg'ona viloyat axborot-kutubxona markazi** (bundan buyon bir tomondan "Buyurtmachi" deb yuritiladi) nomidan nizom asosida faoliyat yurituvchi tashkilot rahbari H.A.Shermatova, ikkinchi tomondan "**FAR QAYUMJON FAYZI" xususiy korxonasi** nomidan nizom asosida faoliyat yurituvchi korxona rahbari M.Q.Ablaxatov (bundan buyon "Ijrochi" deb yuritiladi) quyidagilar haqida ushbu shartnomani tuzdi.

## I. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. "Ijrochi" o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulkni sotish, "Buyurtmachi" esa qabul qilib olingan mahsulot uchun to'lovlarni belgilangan tartibda amalga oshirish majburiyatini oladilar.

## II. SHARTNOMA NARXI

| T/r | Tovarning nomi | O'lchov birligi | Miqdori | Narhi (so'm) | Summasi (so'm) |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | **Interaktivnaya panel** 86 (I-3/DDR 4GB/SSD128GB) + Mobiln Podstavka | Dona | 1 | 41 928 560 | 41 928 560 |
| 2 | **Modem** Router (Dvuxdiapazonnыy Wi-Fi router do 867 Mbit/s na 5 GGs i do 300 Mbit/s na 2.4 GGs) | Dona | 3 | 499 090 | 1 497 270 |
| 3 | **Kamera videonablyudeniya** (komplekt) 14 dona kamera (2CD2443G0E, 2CD1043G0) 2443 NVR 16/ POYe16/ 52V2 3A120W / 7616NI*-Q WITH3G (o'rnatib berish xizmati bilan) | Komplekt | 1 | 17 972 240 | 17 972 240 |
| 4 | **Televizor** 55 (139.7 sm), 1080p Full HD, Podderjka televizionnix standartov: PAL, SECAM, NTSC, (DVB-C/T/T2/S2) Dostupniye razresheniya pri podklyuchenii k PK: 640x480, 800x600, 1024x768, 1280x1024, 1360x768, 1920x1080 Podderjivayemiye formati | Dona | 1 | 7 491 350 | 7 491 350 |
| 5 | **Fotoapparat** (комплект) EOS 5D Mark IV kit 24-105mm f4 L II / Extreme Pro SDXC UHS-I U3 128Gb 1-70x2/ Speedlite 600EX II-RT/ Saramonic Blink500 Pro B2 1 /Godox MS300-F 2-Monolight Kit/Yunteng VCT-999/ Benro Gamma 100/Newell LP-E6N Plus/ on EF 50mm f/1.4 USM I | Dona | 1 | 46 150 580 | 46 150 580 |
| | **Jami** | | 7 | | **115 040 000** |

Mahsulotlarning shartnomaviy umumiy bahosi **115 040 000**.00 (bir yuz o'n besh million qirq ming) so'm.

## III.HISOB-KITOB QILISH TARTIBI

3.1. "Buyurtmachi" tovar uchun oldindan shartnomada ko'rsatilgan summaning 30 % miqdorida 34 512 000.00 (o'ttiz to'rt million besh yuz o'n ikki ming) so'm pul mablag'ini o'tkazish yo'li bilan to'lovni amalga oshiradi.

3.2. "Buyurtmachi" tomonidan qolgan 70% to'lov "jrochi" tomonidan tovar yetkazib berilib, hisob fakturalar taqdim qilingandan so'ng to'lab beriladi.

3.3. Tovarlar "Ijrochi"ning transportida yetkazib berilganda transport harajati o'zaro kelishilgan holda qo'shimcha belgilanadi.

## IV. TOVAR YETKAZIB BERISH MUDDATI.

4.1. "Ijrochi" mazkur shartnoma qonuniy kuchga kirgandan so'ng tovar 10 kun muddat ichida «Buyurtmachi»ga yetkazib berishi shart.

## V. TOVAR SIFATI

5.1. Yetkazib berilayotgan tovar yoki mahsulotlarning sifati belgilangan standartlarga (muvofiqlik sertfikati), ishlab chiqarish me'yoriy xujjatlar va "Buyurtmachi"ning talablariga mos kelishi shart.

## VI. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI

6.1. "Ijrochi" majburiyatlari:

- Shartnomada ko'rsatilgan talablarga rioya qilgan holda o'z vaqtida "Buyurtmachi"ga tovarni yetkazib berish;
- Shartnomaning shartlari "Buyurtmachi" tomonidan buzilganda berilgan mahsulotni qaytarib olib qo'yish huquqiga ega;
- Tegishli darajada sifatli mahsulot yuborilmaganligi to'g'risida dalolatnoma olgandan so'ng, sifatli bo'lmagan mol-mulkni 10 kun ichida almashtirib berish yoki ushbu shartnomaning 2-bandiga asosan sifatli bo'lmagan mol-mulk bahosini qaytarib berish;
- "Ijrochi" yetkazib bergan mahsulotlarini hisob-varaqlarda to'liq va aniq nomini, mahsulot navini, kategoriyasini va boshqa ko'rsatkichlarini ko'rsatishi shart. Shuningdek, hisob-varaqlarni belgilangan tartibda raqamlab, to'liq rekvizitlarni rasmiylashtirishi lozim.

6.2. "Buyurtmachi"ning majburiyatlari:

- "Buyurtmachi" shartnomada belgilangan talablarga rioya qilgan holda to'lovlarni amalga oshirish, tovarni dalolatnoma tuzib ushbu shartnomada va qonun xujjatlarida belgilangan butlash tartibiga, soniga, sifatiga qarab o'z vaqtida mahsulotni qabul qilib olishi lozim.
- Tegishli darajada sifatli bo'lmagan mol-mulk kelib tushganligi aniqlangandan so'ng, ushbu to'g'risida tegishli dalolatnoma tuzilib bu haqida 3 kun ichida "Ijrochi" ni habardor qilish.
- To'liq rasmiylashtirilmagan hamda mahsulotning sifati, navi va kategoriyalari ko'rsatilmagan hisob-varaqlar bo'yicha to'lovlar amalga oshirilishiga yo'l qo'yilmaydi.

## VII. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

7.1. Ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni ijro etmasligi yoki to'liq bajarmaganligi uchun tomonlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida, shuningdek ushbu shartnomada nazarda tutilgan tarzda javobgardirlar.

7.2. "Ijrochi" «Buyurtmachi»ning oldindan mablag'i (avans to'lov) bo'lgani xolda tovarni belgilangan muddatda yetkazib bermaganligi uchun kechiktirilgan har bir kun uchun shartnomada ko'rsatilgan summaning 0.5 % miqdorida «Buyurtmachi»ga penya to'laydi, lekin penyaning umumiy miqdori yetkazib berilmagan maxsulot baxosining 50 % dan oshmasligi kerak.

7.3. Shartnoma talablarida ko'rsatilgan sifatdagi hamda butlashdag imahsulot yetkazib berilmagan bo'lsa, aybdor taraf 20 % miqdorida jarima to'laydi.

7.4. "Buyurtmachi" tomonidan olingan tovar yoki mahsulot uchun to'lovlar o'z vaqtida amalga oshirilmagan taqdirda kechiktirilgan har bir kun uchun kechiktirilgan summaning 0.4% miqdorida "Ijrochi" ga penya tolaydi, bundapenyaningumumiymiqdorikechiktirilgansummaning 50 %danortiqbo'lmasligilozim.

7.5. Tekshiruv organlari tomonidan mahsulot narxi qimmat deb topilgan taqdirda o'rtadagi farq yetkazib beruvchi «Ijrochi» tomonidan qoplanadi.

## VIII. FORS-MAJOR XOLATLARI

8.1. Xech bir taraf ikkinchi taraf oldida o'ziga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra va yengib bo 'lmas kuch mavjud bo'lgan taqdirda ushbu shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlari bo'yicha javobgar emas. Fors-major xolatlarga: suv toshqini, yong'in, yer qimirlashi va tabiiy ofatlar, shuningdek harbiy xarakatlar, davlat organlarining aktlari yoki harakatlari va taraflar nazorat qila olmaydigan boshqa har qanday xolatlar tegishlidir.

8.2. Taraflar ushbu shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarni bajarmaslik sabablari to'g'risida ikkinchi tarafni ogohlantirishi shart.

8.3. Agar bartaraf qilib bulmaydigan kuch 1 oy davomida uzluksiz ravishda davom etsa, taraflar bir-birini yozma ravishda ogohlantirib, shartnomaning ijrosini bekor qilish yoki ijro muddatlarini o'zgartirishlari mumkin.

## IX. KORRUPSIYAGA QARSHI QO'SHIMCHA SHARTLAR

9.1. Taraflar shartnoma tuzishda, shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddait tugaganidan so'ng, shartnoma bilan bog'liq korrupsiyaviy harakatlarni sodir qilmaslikka kelishib oladilar.

9.2. Taraflar shartnomadagi korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan korrupsiyaning oldini olish choralarni tan oladi va ularga rioya etilishi bo'yicha xamkorlikni ta'minlaydilar.

9.3. Har bir taraf shartnoma tuzilgan paytda bevosita o'zi yoki uning ijroya organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan shartnoma bilan bog'liq munosobalar yuzasidan qonunga xilof ravishda pul, moddiy qiymatliklar berilmaganligini, shartnoma tuzilishi evaziga norasmiy pul yoki boshqa moddiy qiymatliklar olinishga yo'l qo'yilmaganligini, taklif etilmaganligini, ularni berishga va'da qilinmaganligini, shuningdek moddiy yoki har qanday turdagi imtiyoz, ustunliklar olinmaganligini (kelajakda bu turdagi xarakatlarni amalga oshirish mumkinligi haqida ta'ssurot qoldirmaganligini) kafolatlaydi. Taraflar, ular tomonidan shartnoma doirasida jalb qilingan shaxslarning (yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorati ostidagi boshqa shaxslarning) yuqoridagi xarakatlarni sodir etmasligi yuzasidan oqilona choralar ko'radi.

9.4. Ushbu holat o'yicha bir taraf ikkinchi tarafni hamda vakolatli davlat organlarini darhol xabardor qilishi shart.

9.5. Tarafning talabi bo'yicha ikkinchi taraf tomonidan qoida buzarliklarni bartaraf qilish bo'yicha oqilona muddat ichida tegishli choralar ko'rilmagan yoki ko'rib chiqish natijalari haqida xabardor qilmagan taqdirda, ushbu taraf shartnomani bir taraflama to'xtatib turishga, bekor qilishga hamda zararni to'liq qoplab berishni talab qilishga haqli.

## X. SHARTNOMANI O'ZGARTIRISH VA BEKOR QILISH TARTIBI

10.1. Ushbu shartnomani bajarish, o'zgartirish va uni bekor qilishda paydo bo'ladigan nizolar taraflarning kelishuvi bilan hal qilinadi. O'zaro kelishilmagan taqdirda mavjud nizo iqtisodiy sudlar orqali O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari asosida hal qilinadi.

10.2. Shartnoma taraflarning o'zaro kelishuviga asosan yoki O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga hamda amaldagi qonun hujjatlari normalariga binoan keltirilgan zararni to'lagan holda muddatidan ilgari bekor qilinishi mumkin.

10.3.Ushbu shartnoma 2022 yil «31»dekabrgacha amal qiladi. Shartnoma 2 nusxada tuzildi. Shartnoma taraflar tomonidan imzolanib, hududiy g'aznachilik bo'limida ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng qonuniy kuchga kiradi.

## XI. TOMONLARNING YURIDIK MANZILI VA REKVIZITLARI:

**«Ijrochi»**

**"FAR QAYUMJON FAYZI" XK**

Manzil: Farg'ona shahar. A.Navoiy ko'chasi 41 B-uy, 34-xonadon

Tel./faks +998 91 123-10-57
h/v 20208000600803142001
Bank nomi Turonbank ATB Farg'ona filiali

MFO 00498 STIR 305074600

Rahbar ________ M.Q.Ablaxatov

**Buyurtmachi"**

**Ahmad Farg'oniy nomidagi Farg'ona viloyat axborot-kutubxona markazi**

Manzil: Farg'ona sh. Ma'rifat ko'chasi. 31 A-uy
Tel./faks: +(99873) 244-00-56
Shg'h 401722860304017082102134001
Tashkilotning STIRi: 203331815.
IFUT(okonx): 93110
Farg'ona shahri bo'yicha G'aznachilik bo'linmasi

YAG'H: 23 402 000 300 100 001 010
Bank nomi: Markaziy bankning Toshkent shahar Bosh boshqarmasi Hisob-kitob kassa markazi (HKKM)
MFO 00014
G'aznachilik bo'linmasining STIR: 201122919

Rahbar ________ H.A.Shermatova

AKM yuristi: ________ X.Tuychiyev

ХУҚУҚИЙ ХУЛОСА
Ушбу шартнома лойиҳаси амалдаги Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик Кодексида "Хўжалик юритувчи субъектлар фаолиятининг шартномавий - ҳуқуқий базаси тўғрисида"ги қонуни талабларига мос келади. Ушбу шартномани имзоласа бўлади деб ҳисоблайман.
Юрист ________ Х.Ш Тўйчиев

"Tasdiqlayman"
Ahmad Farg'oniy nomidagi viloyat
axborot-kutubxona markazi direktori
_______________ H.A.Shermatova
"___" ___________2022 yil

Farg'ona shahri

17.11.2022 yil

**Ahmad Farg'oniy nomidagi viloyat axborot-kutubxona markaziga moddiy texnika sotib olish uchun 177251 lot raqamli e'lonning 14.11.2022-yil kungi elektron bayonnomasi muxokama natijalari to'g'risidagi xarid komissiyasining tegishli majlisi**

## BAYONNOMA XULOSASI

1. Ahmad Farg'oniy nomidagi viloyat axborot-kutubxona markazi markaziga moddiy texnika sotib olish uchun ochik byudjetdan ajratilgan mablag'lar hisobi va xarajatlarning iqtisodiy tasnifi bo'yicha mos keladi.

2. Ahmad Farg'oniy nomidagi viloyat axborot-kutubxona markazi markaziga moddiy texnika sotib olish yuzasidan 14.11.2022-yil kuni tuzilgan xarid komissiyasining elektron bayonnomasi yo'llangan tijorat takliflarni baxolash asosida tuzilgan.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 22-apreldagi **"Davlat xaridlari to'g'risida"**gi (O'RQ-684-son) Qonunning 7-bob 62-moddasining 3-va 7-bandariga asosan **etender.uzex.uz** maxsus axborot portalidagi 14.11.2022-yil kuni tuzilgan xarid komissiyasi elektron bayonnomasining ikki kunlik muxokama vaqtida xech qanday e'tirozlar kelib tushmaganligi sababli elektron bayonnomada g'olib deb topilgan **"FAR QAYUMJON FAYZI" xususiy korxonasi** bilan belgilangan tartibda 115 040 000,00 (bir yuz o'n besh million qirq ming) so'mlik shartnoma tuzilsin.

Komissiya a'zolari:

AXMEDOV DONIYOR RAVSHANOVICH ____________

ESONALIYEV OBIDJON FOZILJON O'G'LI ____________

MASHRABOV ABDUVALI MA'RUFJON O'G'LI ____________

DEXKANBAYEV XUDAYBERDI TOXTASINOVICH ____________

Komissiya kotibi NIMATOVA GAVXAROY XABIBJON QIZI ____________